



RANGTASVIRDA PERSPEKTIVA VA FAZOVIY TASVIR MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20617842>

Baxtiyor Maxkamov

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti

Avazbek Nasirdinov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rangtasvir san'atida perspektiva tushunchasi, uning turlari, fazoviy tasvir yaratish usullari hamda zamonaviy tasviriy san'atdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ikki o'lchamli tekislikda uch o'lchamli makon taassurotini hosil qilish qonuniyatlari, chiziqli, havo va rang perspektivalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Uyg'onish davri klassiklarining ilmiy asoslaridan tortib, modernistik oqimlar hamda zamonaviy o'zbek rassomlari ijodida ushbu qonuniyatlarning talqin qilinishi qiyosiy o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, perspektiva qonunlari asarning haqqoniyligi va badiiy ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga, yosh rassomlarning kasbiy mahoratini oshirishda hamda realistik va zamonaviy tasvir usullarini mukammal egallashda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar. *Rangtasvir, perspektiva, fazoviy tasvir, chiziqli perspektiva, havo perspektivasi, rang perspektivasi, kompozitsiya, yorug'-soya munosabatlari, modernizm, o'zbek tasviriy san'ati.*

Аннотация. *В данной статье научно и теоретически исследуется концепция перспективы в живописи, её виды, методы создания пространственных образов и её значение в современном изобразительном искусстве. В ходе исследования анализируются законы создания трёхмерного впечатления пространства на двухмерной плоскости, особенности линейной, воздушной и цветовой перспектив. Проводится сравнительное исследование от научных основ классики эпохи Возрождения до интерпретации этих законов в творчестве модернистских движений и современных узбекских художников. Результаты показывают, что законы перспективы, наряду с обеспечением подлинности и художественной выразительности произведения, служат основной основой для повышения профессионального мастерства молодых художников и совершенствования реалистических и современных методов изображения.*

Ключевые слова: *живопись, перспектива, пространственный образ, линейная перспектива, воздушная перспектива, цветная перспектива, композиция, светотеневые отношения, модернизм, узбекское изобразительное искусство.*



Abstract. *This article scientifically and theoretically studies the concept of perspective in painting, its types, methods of creating spatial images, and its significance in modern fine arts. During the study, the laws of creating a three-dimensional impression of space on a two-dimensional plane, the specific features of linear, aerial, and color perspectives were analyzed. From the scientific foundations of the classics of the Renaissance to the interpretation of these laws in the work of modernist movements and modern Uzbek artists, a comparative study was conducted. The results show that the laws of perspective, along with ensuring the authenticity and artistic expressiveness of the work, serve as the main foundation for improving the professional skills of young artists and perfecting realistic and modern methods of depiction.*

Keywords. *Painting, perspective, spatial image, linear perspective, aerial perspective, color perspective, composition, light-shadow relationships, modernism, Uzbek fine arts.*

KIRISH

Tasviriy san'at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda borliqni badiiy obrazlar orqali ifodalashda shakl, rang, yorug'lik va fazoviy tasvir asosiy poydevor hisoblanadi. Lotincha aniq yoki orqali ko'rish ma'nosini anglatuvchi perspektiva qonuniyatlari rassomga ikki o'lchamli tekislik yuzasida uch o'lchamli real makon hissini, chuqurlik va hajm taassurotini shakllantirish imkonini beradi. Tarixan ushbu qonunlar ilk bor qadimgi Yunonistonda kuzatilgan bo'lsa-da, ilmiy asosda Uyg'onish davrida Filippo Brunelleschi, Leonardo da Vinci hamda Albrecht Dürer kabi buyuk ijodkorlar tomonidan izchil rivojlantirilgan. Bugungi kunda perspektiva va fazoviy tasvir masalalari nafaqat akademik tasvirlash usuli, balki zamonaviy badiiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida ham o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi rangtasvirdagi perspektiva turlari

va fazoviy tasvir yaratish usullarini ilmiy tahlil qilish hamda ularning zamonaviy milliy va jahon rangtasviridagi amaliy ahamiyatini belgilashdan iborat. Tasviriy san'at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Rangtasvir san'ati esa borliqni badiiy obrazlar orqali ifodalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, unda shakl, rang, yorug'lik va fazoviy tasvir muhim o'rin tutadi. Ayniqsa perspektiva qonunlari rangtasvir asarining haqqoniyligi, chuqurligi va fazoviy ifodasini yaratishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Perspektiva yordamida rassom ikki o'lchamli tekislikda uch o'lchamli makon taassurotini hosil qiladi.

Bugungi kunda rangtasvir san'atida perspektiva va fazoviy tasvir masalalari nafaqat akademik tasvirlash usuli, balki zamonaviy badiiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida ham qaralmoqda. Perspektiva qonunlarini mukammal bilish rassomga kompozitsiyani to'g'ri qurish,



predmetlarning makondagi joylashuvini aniqlash va tomoshabinda real fazo hissini uyg'otish imkonini beradi. Mazkur maqolada rangtasvir san'atida perspektiva tushunchasi, uning turlari, fazoviy tasvir yaratish usullari hamda zamonaviy rangtasvirdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

“Perspektiva” so'zi lotincha *perspicere* — “aniq ko'rish”, “orqali ko'rish” ma'nolarini anglatadi. Tasviriy san'atda perspektiva predmetlarning uzoqlashgan sari kichrayib ko'rinishi, shakl va nisbatlarning ko'rish nuqtasiga bog'liq holda o'zgarishini ifodalovchi qonuniyatlar tizimidir. Perspektiva insonning vizual idroki asosida shakllangan bo'lib, real borliqni tekis yuzada haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Perspektiva qonunlari orqali rassom makon chuqurligi, masofa va hajm hissini yaratadi. Shu sababli perspektiva rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va me'morchilik san'atida muhim nazariy asos hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot jarayonida rangtasvir asarlarida fazoviy muhit va perspektiva qonunlarining qo'llanilishini o'rganish uchun tizimli yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil va badiiy-plastik tahlil metodlaridan foydalanamiz. Chiziqli perspektivaning ufq chizig'i, kuzatish va yo'qolish nuqtalari kabi asosiy elementlari arxitektura va ko'cha manzaralari misolida nazariy jihatdan ko'rib chiqildi. Atmosfera qatlamlari ta'sirida

obyektlarning uzoqlashgan sari xiralashib, sovuq ranglarga moyil bo'lishini ifodalovchi havo va rang perspektivasi qonuniyatlari Leonardo da Vinci ilmiy qarashlari hamda ranglar fizikasi asosida tahlil qilindi. San'at tarixidagi texnik va uslubiy evolutsiyani aniqlash maqsadida Uyg'onish davri klassik an'analari, Pablo Picasso ijodiga xos kubistik va modernistik yo'nalishlar hamda Chingiz Ahmarov va Rauf Choriyev kabi zamonaviy o'zbek rassomlarining asarlari solishtirma tahlildan o'tkazildi.

Perspektiva qonunlari ilk bor qadimgi Yunoniston san'atida kuzatilgan bo'lsa-da, ilmiy asosda Uyg'onish davrida rivojlandi. Italiyalik rassom va me'mor Filippo Brunelleschi perspektiva qonunlarini amaliy jihatdan ishlab chiqqan. Keyinchalik Leonardo da Vinci hamda Albrecht Dürer ushbu nazariyani rivojlantirganlar. Tasviriy san'atda perspektivaning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular rangtasvir asarlarida fazoviy muhitni yaratishda qo'llaniladi. Chiziqli perspektiva eng keng tarqalgan perspektiva turi bo'lib, unda parallel chiziqlar uzoqlashgan sari bir nuqtaga tutashgandek ko'rinadi. Chiziqli perspektivaning asosiy elementlari: ufq chizig'i; kuzatish nuqtasi; yo'qolish nuqtasi; yordamchi chiziqlardan iborat. Ushbu perspektiva turi interyer, me'moriy inshoot va ko'cha manzaralarini tasvirlashda keng qo'llaniladi. Havo perspektivasi predmetlarning uzoqlashgan sari rang va aniqlik jihatdan o'zgarishini ifodalaydi.



Uzoqdagi obyektlar xiralashib, sovuq ranglarga moyil bo'ladi. Bu hodisa atmosferadagi havo qatlamlari bilan bog'liq. Leonardo da Vinci havo perspektivasini ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan rassomlardan biri hisoblanadi. Rang perspektivasida iliq ranglar yaqinroq, sovuq ranglar esa uzoqroq ko'rinadi. Ushbu usul yordamida rassom fazoviy chuqurlikni kuchaytiradi. Kompozitsiya rangtasvir asarining asosiy konstruktiv tizimi bo'lib, fazoviy tasvir yaratishda muhim rol o'ynaydi. Predmetlarning joylashuvi, o'lchami va ritmik munosabati makon hissini shakllantiradi. Kompozitsiyada: oldingi plan; o'rta plan; orqa plan kabi qismlar mavjud bo'lib, ular fazoviy chuqurlikni hosil qiladi. Oldingi plandagi predmetlar kattaroq va aniqroq tasvirlanadi, orqa plan esa mayin va umumlashtirilgan ko'rinishda ifodalanadi.

Yorug'lik va soya predmetlarning hajmini ochib beruvchi muhim tasviriy vositadir. Yorug'-soya munosabatlari orqali rassom jismlarning plastikasini va makondagi o'rnini ko'rsatadi

Asosiy yorug'lik elementlari: blik; yarim soya; refleksi; tushuvchi soyadan iborat. Yorug'lik manbaining yo'nalishi kompozitsiyadagi dramatism va emotsional holatni ham belgilaydi. Rangtasvir san'atida ranglarning fazoviy xususiyati muhim ahamiyatga ega. Iliq ranglar tomoshabinga yaqinlashib ko'rinsa, sovuq ranglar uzoqlashgandek taassurot uyg'otadi. Masalan: qizil, sariq, to'q sariq ranglar faol va yaqin; ko'k,

moviy, binafsha ranglar esa sokin va uzoq fazoni ifodalaydi.

Rassomlar rang kontrastlari yordamida ham makon chuqurligini kuchaytiradilar. XX–XXI asrlarda san'atdagi modernistik oqimlar natijasida klassik perspektiva qonunlariga yangicha yondashuv shakllandi. Kubizm, abstraksionizm va ekspressionizm kabi yo'nalishlarda predmetlar bir nechta nuqtadan tasvirlanib, an'anaviy perspektiva buzildi. Pablo Picasso ijodida bir obyektning turli rakurslardan tasvirlanishi kuzatiladi. Bu esa fazoviy tasvirning yangi badiiy talqinini yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, akademik perspektiva bugungi kunda ham tasviriy savodxonlikning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek rassomlari ijodida ham perspektiva va fazoviy tasvir masalalari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa manzara va me'moriy kompozitsiyalarda sharqona dekorativlik bilan akademik perspektiva uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Chingiz Ahmarov va Ro'zi Choriyev asarlarida fazoviy muhit rang va dekorativ shakllar yordamida ifodalangan.

Natija va muhokama

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompozitsion qurilishda predmetlarning joylashuvi, o'lchami va ritmik munosabatlari, shuningdek, oldingi, o'rta va orqa planlarning aniqlik darajasi fazoviy chuqurlikni hosil qiluvchi bosh konstruktiv tizim hisoblanadi. Ranglarning fazoviy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida



qizil, sariq va to‘q sariq kabi iliq ranglar tomoshabinga yaqin, ko‘k, moviy va binafsha kabi sovuq ranglar esa uzoq fazoni ifodalashi va bu kontrastlar makon chuqurligini kuchaytirishi aniqlandi. Kubizm va abstraksionizm kabi modernistik oqimlar ta‘sirida predmetlarni bir nechta nuqtadan tasvirlash orqali klassik perspektiva qonunlariga yangicha eksperimental yondashuvlar kirib kelganligi muhokama qilindi. Zamonaviy o‘zbek rangtasvir maktabi va ijodkorlari faoliyatida esa akademik perspektiva qonuniyatlari sharq miniatyura an‘analari, dekorativ tekislik va ramziy fazo elementlari bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashib, o‘ziga xos milliy badiiy talqinni yuzaga keltirayotganligi isbotlandi.

Milliy rangtasvir maktabida: sharq miniatyura an‘analari; dekorativ tekislik; ramziy fazo elementlari zamonaviy perspektiva qonunlari bilan uyg‘unlashmoqda. Rangtasvir san‘atida perspektiva va fazoviy tasvir masalalari asarning haqqoniyligi hamda badiiy ta‘sirchanligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biridir. Perspektiva qonunlari yordamida rassom ikki o‘lchamli yuzada uch o‘lchamli makon taassurotini yaratadi. Chiziqli, havo va rang perspektivalari fazoviy chuqurlikni ifodalashning muhim vositalari hisoblanadi.

XULOSA

Rangtasvir san‘atida perspektiva va fazoviy tasvir masalalari asarning haqqoniyligi, badiiy qiymati va emotsional ta‘sirchanligini ta‘minlovchi eng muhim fundamental omil ekanligi to‘g‘risida ilmiy xulosalarga kelindi. Chiziqli, havo va rang perspektivalari, shuningdek, yorug‘-soya munosabatlari elementlari tekislikda jismoniy reallik va plastik hajmni ochib berishning o‘rinbosarsiz vositalari bo‘lib qolmoqda. Akademik perspektiva qonuniyatlari bugungi kunning yangi eksperimental uslublari sharoitida ham tasviriy savodxonlikning asosiy mezonini hisoblanadi. Ushbu nazariy va amaliy asoslarni chuqur o‘rganish yosh rassomlarning professional mahoratini oshirishda, an‘anaviy realistik maktab hamda zamonaviy tasviriy yo‘nalishlarni mukammal uyg‘unlashtirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kompozitsiya, yorug‘lik, soya va rang uyg‘unligi ham fazoviy tasvirning badiiy yechimida katta ahamiyatga ega. Zamonaviy rangtasvirda esa perspektiva klassik qonunlardan tashqari yangi eksperimental talqinlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda perspektiva nazariyasini chuqur o‘rganish yosh rassomlarning kasbiy mahoratini oshirish, realistik va zamonaviy tasvir usullarini mukammal egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymetov B. Rangtasvir asoslari. Toshkent, 2010.
2. Abdullayev N. Tasviriy san'at tarixi. Toshkent, 2001.
3. Sodiqov P. Akademik rangtasvir. Toshkent, 2015.
4. G'ulomov S. Kompozitsiya va perspektiva asoslari. Toshkent, 2018.
5. The Story of Art
6. Treatise on Painting